



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTORINING TASHKILY FAOLIYATINI YO'LGA QO'YISH

Botirova Zuxraxon Abdurahimovna

Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha
ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi-

Do'stmatova Dilrabo

Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lim
yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7882827>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-april 2023 yil

Ma'qullandi: 28-april 2023 yil

Nashr qilindi: 30-april 2023 yil

KEY WORDS

*Maktabgacha ta'lim tashkiloti,
pedagog, ota-onalar,
kompetensiya, boshqaruv,
shaxsiy refleksiya, boshqaruv
prinsiplari, hamkorlik.*

ABSTRACT

*Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari
direktorlarining tashkiliy faoliyatini yo'lga qo'yishda
kuzatuv kengashining roli, rahbarning kompetentligi,
zamonaviy rahbarning vazifalari haqida so'z boradi.
Shuningdek, bugungi kunda tashkiliy boshqaruvdagi
muammolarning sabablari muhokama qilingan.*

Ta'lim tizimida boshqaruv faoliyatini samarali yo'lga qo'yish ta'lim sifatini yuqorilashuviga olib kelish bilan birga, xodimlar o'rtasida ham samarali muhit yaratishni ta'minlab beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari misolida olsak, bugungi kunda boshqaruv jarayoni tobora o'zgacha yo'nalishlarni tanlashni taqozo etmoqda. Chunki maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun kuzatuv kengash faoliyati muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi dekabrda "Maktabgacha ta'lim muassasalarining Kuzatuv Kengashlari faoliyatini tashkil haqida"gi 239-sonli buyrug'iga asosan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Kuzatuv balki "Kuzatuv kengash" nazoratini ham o'z ichiga oladi. Kuzatuv kengashining maqsadi quyidagilardir:

- tashkilotning vazifalarini belgilash
- tashkilot faoliyatini takomillash-tirish
- boshqaruv tizimida shaffoflikni ta'minlash
- hamkorlikni mustahkamlash

Ko'rinib turibiki, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori tashkiliy faoliyatini yo'lga qo'yishda jamoaning umumiy manfaatlarini doimiy hisobga olib borish, avtoritar rahbarlik xususiyatlaridan vos kechgan holda, yagona maqsad yo'lida xodimlar bilan hamkorlik aloqasini yo'lga qo'yishni talab etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy menejment maktabining namoyandasi Payg'ambarimiz Muhammad Mustafa sallolohi alayhi vasallam (570-632-yillar), u kishining turli maktablarni boshqaruv ta'limotiga qo'shgan hissasi:

- Boshqaruvning diniy ta'limotga asoslangan nazariy tamoyilini yaratdi.

- Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy muvofiqlashtirishga intilishlar orqali boshqarish san'atini mukammal egallashga xizmat qiluvchi ta'limotlar (Qur'oni karim¹, hadislarning²)ning tizimini yaratdi.
- O'z davrining siyosiy-goyaviy shart-sharoitlarini yaxshi tushungan, xalqlar va elatlarni islom ta'limotlari asosida diniy, siyosiy, g'oyaviy jihatdan birlashtirish yo'lida yagona Payg'ambar.
- Boshqarishning murakkab, chigal voqea-hodisalarini, ijtimoiy hayotni biron qolipga solish, uni nazorat qilish uchun shariat qonunlari turkumlariga asos soldi va h.k.[1]

Miqdoriy tizimli va zamonaviy menejment maktabi asoschilari G.Saymon, P.Druker, E.Deyl va boshqalarning 1950-yildan hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu nazariya mazmuni quyidagilarni ifoda etadi:

- Murakkab boshqaruv muammolarini chuqurroq tushunish maqsadida turli modellarni ishlab chiqish va qo'llash;
- Murakkab vaziyatlarning yechimi bo'yicha boshqaruv xodimlariga yordam beruvchi miqdoriy usullarni ishlab chiqish. Shunday qilib, menejment nazariyasi va amaliyoti turli davrlarda o'ziga xos ko'rinishlarda shakllangan:
- 1950-60 yillarda boshqaruvning diqqat markazida *tashkiliy tarkib* turgan;[2]

Ta'lim sifatini boshqarishning turli yondashuvlarini o'rganish bir qator tadqiqotchilarga e'tibor beradi, xususan E.M. Korotkov, M.M. Potashnik, P.I. Tretyakov, I.K. Shalaev, T.I. Shamova va boshqalar.

MUHOKAMALAR

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining tashkiliy faoliyatni tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Kompetentlikning asosiy elementlari "Davlat ta'lim standartlari"da o'z ifodasini topgan. Rahbar va pedagog xodimlari bilan o'zaro to'g'ri munosabatlarni, ularning usullari, muloqot jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi tilni o'zlashtirish, jamoada ishlash ko'nikmalari, jamoada turli xil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni bilishni o'z ichiga oladi.

Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965 yil, Massachutes universiteti) tomonidan taklif etilgan «kompetentsiya» atamasining umumiy ma'nosida shakllandi. Yevropa Kengashi dasturi bo'yicha Bern shahrida bo'lib o'tgan simpoziumda (1996 yil) «kompetentsiya» tushunchasi «uquv», «kompetentlik», «qobiliyat», «mahorat» singari tushunchalar qatoriga kiritilgan. Yevropa davlatlarining ta'lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999 yil) ta'lim islohatlarining kontseptual asoslari sifatida kompetentli yondoshuv e'tirof etildi. Rahbarning kompetentligi-bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O'z sohasini, ishining ustasi bo'lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir. Rahbar kompetensiyasining shakllanishi besh bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

Rahbar kompetensiyasining shakllanish bosqichlari

- Qobiliyatni aniqlash;
- Tarbiyalash va shakllantirish;
- Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish);
- Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish);
- Rahbarlik cho'qqisi.

Zamonaviy rahbar kompetentsiyasida jarayonni boshqarishning o'ziga xos vazifalari mavjud bo'lib, ular qo'yidagilardan iboratdir:

- Rejalashtirish
- Tashkillashtirish
- Tahlil qilish
- Asoslash (motivatsiya)
- Nazorat qilish

Ularning har biriga izoh berar ekanmiz, shuni qayd etish lozimki, rahbarlikning asosiy maqsadi, ushbu muhim vazifalar o'rtasida mutanosiblik va uyg'unlikka erishish hamda shu orqali tashkilot yakdilligini ta'minlashdir. Rejalashtirish vazifasi birinchi navbatda rahbar o'z tashkilotining maqsadi, vazifalari, amalga oshirish jarayoni, faoliyat natijalarini aniqlashi va belgilashi zarur. Tashkillashtirish belgilangan vazifalar, ish hajmi, unga ketadigan vaqtni hisobini aniq belgilab olishi, ya'ni tashkilot turli bo'limlaridagi mavjud imkoniyatlardan optimal darajada foydalanishdir. Rahbar ado etishi zarur bo'lgan ishning boshlanish jarayonidan boshlab oxirigacha to'liq tahlil qilishi maqsadga muvofiq. Bu olib borilayotgan ish natijalaridagi ba'zi holatlarning kamchiligini joyida tushunib borishga imkon yaratadi. Rahbar strategik maqsadlarni ko'zlar ekan, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etib borishiga asosli dalillar ham zarur. Shu sababli har bir rahbar tomonidan tashkillashtirilgan ishlar asosli va o'zaro qiyosiy tahlillarga ega bo'lishi kerak. Boshqaruvdagi nazorat qilish vazifasi ta'lim standartlari, pedagogik jarayonni mavjud qonun va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan talablar asosida kechishini ta'minlaydi.[3]

Boshqaruvda rahbar muhim vazifalarni bajarish bilan birga mehnat jarayonida kompetenlilik xususiyatlarini namoyon etishi zarur. Rahbarning jarayonni innovatsion boshqarishda uning kasbiy refleksiya muhim rol uynaydi. Kasbiy refleksiya-o'z-o'zini anglashi, o'zini-o'zi boshqarish va o'z-o'zini bilish demakdir.

NATIJALAR

Faqat barkamol zamonaviy rahbar o'z boshqaruv vazifalarini maqsadli ravishda amalga oshiradi, real hayotda samarali qarorlar qabul qiladi, pedagoglar tarkibiga pedagogik mahorat va kasbiy tayyorgarlikni oshirishda bevosita yordam beradi. Bunday rahbar tizimdagi o'quv jarayonining har bir ishtirokchisi uchun "Pedagog - bola - ota-onalar" hamkorlik muhitini yaratadi:

Eski va rivojlanayotgan iqtisodiy tizimni tanlashda ortib borayotgan beqarorlikdan iborat bo'lgan o'tish davri iqtisodiyotining xususiyatlari boshqaruv qarorlarini qabul qilishning samarali vositasi sifatida maktabgacha ta'limni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarurligini kuchaytiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglar, kadrlar, moliyaviy menejment g'oyalarini amaliyotga tatbiq etishga bog'liq bo'lib, u bolalar va ularning ota-onalarining ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogik jarayonni boshqarish printsiplari, vositalari, shakllari va usullari to'plamini o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishning asosiy printsiplariga yechim maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishga yordam beradi:

- Menejmentda markazlashtirish va markazlashtirmaslikning maqbul nisbati;
- Boshqarishda yakka-yakka boshqaruv va kollegiallik;
- Huquq va majburiyatlarning oqilona uyg'unligi, boshqaruv va o'zini o'zi boshqarishdagi

javobgarlik;

- Boshqaruvga ilmiy yondoshishni amalga oshirish, rasmiyatchilikni engish;
- Davlat va jamoat tamoyillarining uyg'unlashuvi, o'zini o'zi boshqarishning kengayishi.

Moliya-xo'jalik faoliyatining yangi mexanizmi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Maktabgacha ta'lim tashkilotining iqtisodiy faoliyatining turli shakllarini rivojlantirish, aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish bilan byudjet mablag'larini birlashtirish;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotining iqtisodiy faoliyatini isloh qilish;
- Ijtimoiy rivojlanish muammolarini hal qilishda mehnat jamoalarining mustaqilligini rivojlantirish.

Olib borilgan ilmiy va amaliy izlanishlar natijasida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining tashkiliy boshqaruvi bugungi kunda past darajada ekanligidan dalolat bermoqda. Bunga o'rinli sabablar bor, albatta. Mamlakatimizdagi ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlari va yuqori boshqaruv tashkilotlarida ko'plab nomutaxassis pedagoglar faoliyati davom ettirilmogda. Bu holat tizimda ko'plab muammolar vujudga kelishiga asos bo'ladi. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi, ta'lim-tarbiya nazariyasini yaxshi o'zlashtirmay turib tizimda samarali faoliyat yuritish mumkin emas. Shuning uchun keyingi oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri, bu tizimdagi mutaxassislar faoliyatini tubdan ko'rib chiqish, mazkur yo'nalish bo'yicha tegishli ma'lumot va tajribaga ega mutaxassislar faoliyatini joriy etishni amalga oshirib borish lozim bo'ladi.

XULOSALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalar va ularning otalarining ehtiyojlarini qondirish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish tamoyillari, vositalari, shakllari va usullari to'plamini o'z ichiga olgan boshqaruvni boshqarish (pedagogik, kadrlar, moliyaviy va boshqalar) g'oyalarini amalga oshirishga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishning yangi modellariga o'tish maktabgacha ta'lim tizimida samarali ishlashning tashkiliy va moliyaviy mexanizmlarini shakllantirish uchun sharoit yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish nafaqat pedagogik va boshqaruv vazifasi, balki ijtimoiy vazifadir, chunki umuman ta'lim tizimining sifati uning echimiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Mansur "Qur'oni Karim". O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar.. T. „Cho'lpon», 1992.
2. N.M.Ziyavitdinova, Y.M.O'rinov, Sh.N.Xayitov, MENEJMENT, «Tafakkur-Bo'stoni» Toshkent — 2012, 39 b
3. F.Qodirova, SH.Toshpulatova: Maktabgacha pedagogika O'quv qo'llanma-T: 2013yil, 89 b.
4. F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education. Pindus Journal Of Culture, Literature and ELT. 110 <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/256>
5. Boltayeva F. A. Esonaliyeva O. Yoshlar hayotida virtuallashuv sabablari va omillari. "Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" FTAI, Jild: 03, Nashr: 06, June 2022. 232 b
6. <https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/588>
7. Boltayeva F. A., Ibrohimova N. N. Maktabgacha ta'limda integral darslar – innovatsion loyiha sifatida. "Science and Innovation". International scientific journal. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6626043> 2022 y., 2-son.

8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1t7x8egAAAAJ&citation_for_view=1t7x8egAAAAJ:Tyk-4Ss8FVUC
9. Boltayeva F.A., O'qitishning kredit-modul tizimida bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish imkoniyatlari, SYNERGY: JOURNAL OF ETNICS AND GOVERNANSE, Volume: 02 Issue: 11/ November - 2022., ISSN:2181-2616
10. <https://sciencebox.uz/index.php/sjeg/article/view/4175/3746>
11. THE IMPORTANCE OF THE PROJECT METHOD IN PERSONALITY-ORIENTED EDUCATION "Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda loyiha metodining ahamiyati" M. Olamova, D.Ma'murova Oriental Journal of Social Sciences SJIF for 2022:5.908 215-221b.
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zK2c628AAA&citation_for_view=zK2c628AAA:9yKSN-GCB0IC
13. MU Olamova–Farg'ona davlat universiteti II–bosqich magistranti RN To'ychieva–QQPI IV–bosqich talabasi
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=1184191814673959234&btnI=1&hl=ru>
14. ILG 'OR AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISH KM Otajonovna, O Mamura, BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2022
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zK2c628AAA&citation_for_view=zK2c628AAA:lJcSPb-OGe4C
15. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIGA MULTIMEDIALI DASTURLARNI TADBIQ ETISH ORQALI TA'LIMDA QULAY MUHIT YARATISH Mamura U. Olamova
16. <https://www.supportscience.uz/index.php/ojss/article/download/346/288/445>
17. MAKTABGACHA TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG 'OR AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR M Olamova, DA qizi Ma'murova, INTERNATIONAL CONFERENCES, 2022
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zK2c628AAA&authuser=1&citation_for_view=zK2c628AAA:Y0pCki6q_DkC
18. Z.Botirova, D.Dusmatova (2022). Organizational and management activity of the head of preschool educational organizations Modern journal of social sciences and humanities jurnalining 4-son, 343-348-betlar.
19. Z.Botirova, M.Xoshimova (2022). Organizational structure of preschool education management International journal of culture and modernity 17-son, 189-193-betlar
20. Z.Botirova, R.Djumaboyeva (2022). Organization of pedagogical monitoring in the system of education quality management International journal of culture and modernity 17-son,183-188-betlar.
21. Z.Botirova, R.Djumaboyeva Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati monitoring xususida. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnalining 2022-yil 8-son, 472-478-betlar.
22. Z .Botirova, M.Xoshimova Maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish "Menejment" tushunchasi va uning xususiyatlari O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnalining 2022-yil 8-son, 479-483-betlar
23. Z.Botirova, D.Dusmatova Maktabgacha ta'lim tashkiloti tashkiliy boshqaruv faoliyati xususida O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnalining 2022-yil 8-

son, 484-488-betlar.

24. Z.Botirova Maktabgacha ta'limda axborot texnologiyasidan foydalanishning nazariy tahlili NamDU ijmiy axborotnomasi 2019 y. 1 (11) 266-269b.

25. Z.Botirova Maktabgacha ta'limda boshqaruv va menejment. Darslik.2022y.

